

THE ROLE OF UZBEKISTAN MUSEUMS IN PRESERVING CULTURAL HERITAGE AND STRENGTHENING NATIONAL IDENTITY

Normatova Gavhar Mahmud kizi

Sales Manager, Limited Liability Company “Fartuna-savdo”

Abstract: This article analyzes the role of museums in Uzbekistan in preserving cultural heritage and strengthening national identity from a cultural studies perspective. Based on governmental policies and legal documents such as the Law “On Culture” and decrees on museum modernization, the study explores the sociocultural functions of modern museums. Statistical data and comparative methods are applied to critically assess the contribution of museums to cultural identity formation in Uzbekistan.

Key words: museology, cultural studies, cultural heritage, national identity, sociocultural approach, Uzbekistan.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston muzeylarining milliy o‘zlikni shakllantirish va madaniy merosni asrashdagi o‘rni madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Muallif mamlakatda amalga oshirilayotgan madaniyat siyosati, jumladan, “Muzeylar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi hukumat qarorlari, “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar asosida zamonaviy muzeylarning sotsiokulturologik funksiyalarini ochib beradi. Tadqiqotda statistik ma‘lumotlar, tahliliy yondashuv va qiyosiy metodlar asosida O‘zbekiston muzeylarining madaniy o‘zlikni mustahkamlashdagi roli tanqidiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: muzeyshunoslik, madaniyatshunoslik, madaniy meros, milliy o‘zlik, identitet, sotsiokulturologik yondashuv, O‘zbekiston.

Аннотация: В статье рассматривается роль музеев Узбекистана в формировании национальной идентичности и сохранении культурного наследия с позиции культурологии. Автор анализирует реализацию государственной культурной политики, нормативно-правовую базу и современное развитие музейной деятельности в стране. Применяя статистические данные и сравнительный анализ, выявляются тенденции и проблемы в сфере сохранения нематериального культурного наследия.

Ключевые слова: музеология, культурология, культурное наследие, национальная идентичность, социокультурный подход, Узбекистан.

KIRISH

Har bir xalqning madaniy o‘zligi, tarixiy xotirasi va ijtimoiy qadriyatlarini ifoda etuvchi asosiy manbalardan biri — bu muzeylardir. Muzeylar millat madaniy xotirasining “saqllovchisi” sifatida nafaqat tarixni, balki xalqning ma‘naviy-axloqiy tajribasini ham mujassam etadi [1, 22-b.].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy merosni saqlash, restavratsiya qilish va uni keng jamoatchilikka yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Madaniyat to‘g‘risida”gi Qonun (2017 yil 23-avgust, O‘RQ–439) hamda “Muzeylar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–218, 2022 yil 26-aprel) bu borada asosiy me‘yoriy-huquqiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda [2, 14-b.].

Bugungi kunda O‘zbekistonda 120 dan ortiq davlat muzeylari faoliyat yuritmoqda, ularning fondida 2 milliondan ortiq noyob eksponatlar saqlanmoqda [3, 8-b.]. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda “raqamli muzey”, “virtual ekspozitsiya”, “madaniy merosning 3D modeli” kabi tushunchalar amaliyotga kirib kelmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekiston muzeylarining madaniy merosni asrash va milliy o‘zlikni mustahkamlashdagi o‘rnini madaniyatshunoslik hamda sotsiokulturologik yondashuv asosida tahlil qilishdir.



Muzeyshunoslik nazariyasi klassik jihatdan XIX asrda shakllangan bo'lib, u dastlab "tarixiy ob'ektlarni saqlash va namoyish etish tizimi" sifatida qaralgan [4, 31-b.]. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa muzeylar ijtimoiy institut sifatida o'rganila boshladi. J. Bennet, E. Hooper-Greenhill va P. Vergo kabi olimlar muzeyni "madaniy kommunikatsiya maydoni" sifatida talqin etgan [5, 44-b.].

O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda muzeylarning yangi madaniy paradigmasi shakllandi. Ayniqsa, 2018–2023 yillarda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida muzeylar ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish, yoshlar bilan ishlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'nalishida sezilarli o'zgarishlarga erishdi [6, 19-b.].

Shuningdek, madaniyatshunos olimlar A.Qodirov, D.Islomova, R.Rahmonovlar o'z tadqiqotlarida muzeylarni "milliy o'zlikning ijtimoiy ko'zgusi" sifatida baholagan [7, 12-b.]. Ularning fikricha, muzeylar milliy o'zlikni qayta ishlab chiqish jarayonida "madaniy selektor" funksiyasini bajaradi, ya'ni xalq xotirasini tanlab, talqin etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda madaniyatshunoslik, sotsiokulturologik va qiyosiy-tahliliy metodlar qo'llanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Davlat statistic qo'mitasi statistik hisobotlari hamda mavjud qonun va qarorlar tahliliga asoslanadi [8, 4-b.].

Bundan tashqari, metodologiyada G.Hofstede va S.Huntingtonning "madaniy identitet" haqidagi nazariy konsepsiyalaridan, shuningdek P.Bourdieu'ning "madaniy maydon" konsepsiyasidan foydalanildi [9, 67-b.].

NATIJALAR VA TAHLIL

So'nggi yillarda O'zbekiston muzeylari faoliyatida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Masalan, 2024-yil holatiga ko'ra, muzeylarga tashrif buyurganlar soni 4,3 million kishidan oshgan, bu 2018-yilga nisbatan 2,6 barobar ko'pdur [10, 3-b.]. Ayniqsa, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, Temuriylar tarixi muzeyi, Ichan-Qal'a muzey-qo'riqxonasi kabi yirik muassasalar xalqaro miqyosda tan olinmoqda. 2023 yilda O'zbekiston ICOM (Xalqaro muzeylar kengashi) a'ziligiga qabul qilinishi ham bu sohada yuksak ishonch belgisi bo'ldi [11, 6-b.].

Shu bilan birga, muzeylarning milliy o'zlikni shakllantirishdagi roli tobora ortmoqda. Har yili o'tkaziladigan "Muzei haftaligi", "Yoshlar madaniyat festivali" kabi tadbirlar yoshlar orasida madaniy ongni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, muammolar ham mavjud. Ayrim hududiy muzeylarda ekspozitsiyalar eskirgan, raqamli texnologiyalar joriy etilishi sust kechmoqda [12, 17-b.]. Shu sababli, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, kadrlar malakasini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA

O'zbekistonning zamonaviy madaniy siyosatida muzeylar milliy identifikatsiya, ijtimoiy xotira va tarixiy merosni barqaror rivojlantirishning muhim poydevori sifatida qayta talqin qilinmoqda [13, 22-b.]. XXI asrda globallashuv jarayonlari kuchaygani sari, mahalliy madaniyatlarning o'zligini saqlab qolish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, muzeylar endilikda nafaqat eksponat saqlovchi maskan, balki madaniy kommunikatsiya va tafakkur maydoni sifatida qaralayotgani bejiz emas [14, 19-b.].

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, muzeylar millat xotirasining "institutsionallashtirilgan shakli"dir. Ular orqali tarixiy voqealar, qadriyatlar, urf-odatlar va san'at namunalari mazmuni ijtimoiy ongda qayta tiklanadi [15, 34-b.]. Shu boisdan ham davlat siyosatida muzeylarning faoliyatini huquqiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash doimo dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Masalan, 2018-yilda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori [16, 2-b.] bilan mamlakat miqyosida 120 dan ortiq muzeylarda raqamlashtirish va restavratsiya ishlari boshlangan.



Madaniy merosni raqamlashtirish jarayonlari 2023-yilda 65 foiz muzey fondlarini qamrab olgan bo'lsa [17, 8-b.], 2025-yil uchun bu ko'rsatkich 90 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan [18, 11-b.]. Biroq mavjud amaliyotda muzeylarning ilmiy-tadqiqot salohiyati va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi hanz yetarli emas. Shuningdek, ayrim muzeylarda eksponatlar ilmiy kataloglashtirishsiz saqlanayotgani yoki ularning tarixiy tavsiflari yetarli darajada ilmiy ekspertizadan o'tkazilmagani kuzatilmoqda [19, 27-b.]. Bu esa ilmiy ishonchlilik va xalqaro hamkorlikda ma'lumot almashish jarayonlariga to'siq bo'layotgan muammolardan biridir.

Tanqidiy jihatdan yondashilganda, ayrim muzeylar faoliyatida "ko'rgazma markazi" yondashuvi ustuvor bo'lib, madaniy-ma'rifiy ta'sir, ijtimoiy interaktivlik va yosh avlodni estetik tarbiyalash masalalari ikkinchi planga tushib qolmoqda [20, 15-b.]. Zamonaviy muzeychilikning rivojlangan modellari (masalan, Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya tajribalari)da esa tashrifchi bilan emotsional aloqani shakllantirish, raqamli vositalar orqali immersiv tajribani yaratish, muzeyni madaniy muloqot maydoni sifatida tashkil etish asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etilgan [21, 43-b.].

O'zbekistonda esa bu yo'nalishda ijobiy siljishlar sezilmoqda. Masalan, "O'zbekiston tarixi" davlat muzeyida 2024-yildan boshlab "Virtual tur" tizimi ishga tushirildi, natijada onlayn tashrif buyuruvchilar soni 2,5 barobarga oshdi [22, 5-b.]. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi San'at muzeyida raqamli rekonstruksiya loyihasi asosida 600 dan ortiq eksponatlar 3D formatda qayta tiklandi [23, 9-b.].

Madaniyat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni 3,2 milliondan 5,7 millionga oshgan [24, 4-b.]. Bu ko'rsatkich, bir tomondan, aholining madaniy faolligining oshayotganidan, ikkinchi tomondan, davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar samaradorligidan dalolat beradi. Biroq ayrim tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu o'sish asosan markaziy hududlardagi yirik muzeylar hisobiga ta'minlanmoqda, chekka viloyatlarda esa tashrif ko'rsatkichlari nisbatan pastligicha qolmoqda [25, 13-b.].

Shunday qilib, muzeylar madaniy merosni saqlash bilan birga, ijtimoiy integratsiya va milliy g'oya targ'ibotining faol platformasiga aylanmoqda. Ularning samarali ishlashi uchun davlat siyosati, ilmiy salohiyat, raqamli texnologiyalar va jamoatchilik ishtiroki o'rtasidagi uyg'unlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu o'rinda, madaniyatshunoslikning amaliy yo'nalishlari — semiotika, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyalarini qo'llash — muzeylarning ijtimoiy rolini yanada kengroq tushunish imkonini beradi [26, 31-b.].

XULOSA

O'zbekiston muzeylari bugungi kunda nafaqat madaniy merosni asrash, balki milliy o'zlikni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash va madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham muhim o'rin tutmoqda. Ularning faoliyatini takomillashtirish, raqamlashtirish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mamlakat madaniyat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

References:

1. Karimov I.A. High spirituality is an invincible force. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 p.
2. Law of the Republic of Uzbekistan "On Culture", 23.08.2017, O'RQ-439.
3. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Annual report on the sphere of culture. – T., 2024.
4. Vergo P. The New Museology. – London: Reaktion Books, 1989. – 230 p.
5. Hooper-Greenhill E. Museums and the Interpretation of Visual Culture. – London: Routledge, 2000. – 260 p.
6. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-218, 26.04.2022.
7. Qodirov A. Museums of Uzbekistan and Cultural Heritage. – T.: Science, 2019. – 220 p.



8. 8. Report archive of the Ministry of Culture. – T., 2023.
9. 9. Bourdieu P. The Field of Cultural Production. – Cambridge: Polity Press, 1993. – 280 p.
10. 10. FEATURES OF MANAGEMENT AND ITS IMPROVEMENT. Oriental art and culture, 3(1), 254-260.
11. 11. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. image, 4(12), 146-151.
12. 12. Yuldasheva, M. B., & Qolqanatov, A. N. (2024). Human resource potential as a leading factor in increasing the effectiveness of organizational activities in the socio-cultural sphere. Inter education & global study, (8), 58-68.
13. 13. Saparbayeva, G., & Qolqanatov, A. (2021). THE ROLE OF SCENARIO WRITING IN ORGANIZING PUBLIC HOLIDAYS. Oriental Art and Culture, (8), 16-21.
14. 14. Nazarbay o'g'li, Q. A., & Eldor o'g'li, J. Z. (2025). INTERPRETATION OF THE AUDIOVISUAL INDUSTRY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(5), 122-129.
15. 15. VA, I. E. T., & YILI, S. T. L. Imam Bukhariy saboqlari.
16. 16. Nishonova, Jumagul. "PEDAGOGICAL BASIS OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN." CREATIVE TEACHER 3.25 (2022): 205-208.
17. 17. Olimjonova, M., and J. Nishonova. "ACTING ARTS: TRADITIONS AND ISSUES OF DEVELOPMENT." Science and Innovation 1.8 (2022): 33-36.
18. 18. Gulmuodova, Kumush, and Jumagul Nishonova. "THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF CULTURE AND ART IN SOCIETY DEVELOPMENT." Young Scientists 2.2 (2024): 131-132.
19. 19. Toxirjonova, Muhlis, and Jumagul Nishonova. "INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE IS THE MASTERPIECE OF OUR SOCIETY." Young Scientists 2.2 (2024): 133-134.
20. 20. Odilova, Muhlis, and Jumagul Nishonova. "THE ROLE OF LIBRARIES IN INCREASING YOUTH LITERACY." Young Scientists 2.2 (2024): 130-130.
21. 21. Ostonova, Maftuna, and Jumagul Nishonova. "CHARACTERISTICS OF CULTURAL POLICY IN NEW UZBEKISTAN." Young Scientists 2.2 (2024): 104-106.
22. 22. Arslanbayeva, Munisa, and Jumagul Nishonova. "MODERN CONCEPTS OF STATE ADMINISTRATION IN THE FIELD OF CULTURE AND ART IN NEW UZBEKISTAN." Young Scientists 2.2 (2024): 107-109.
23. 23. Olimjonova, M., and J. Nishonova. "ACTING ART: AN 'ANALAR VA TARAKQIYOT MASALALARI." Science and innovation 1.C8 (2022): 33-36.
24. 24. Kizi, Nishonova Jumagul Ibrahimjon, and Abdullaeva Nasiba Ibrahimjon Kizi. "THE LIVE VOICE OF THE PEOPLE IN THE WORK OF MUHAMMAD YUSUF." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.4 (2021): 345-347.
25. 25. Khudoyberdiyeva M. Theory of cultural communication. – Tashkent: Yangi asr avlod, 2020. – 210 p.

